



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA HIKOYALAR MATNI USTIDA ISHLASH

Olimboyeva Malohat Qudrat qizi

Urganch davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7990682>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Boshlang'ich ta'lim,
noan'anaviy ta'lim shakli,
hikoya tahlili, ijobiy va salbiy
obraz, matn tahrirlash, dialog,
uslubiy yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda sinfdan tashqari o'qish, bilim berish darslarining ahamiyati hikoyalarni darsdan tashqari tahlil etishda namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning yoshga to'g'ri keladigan hikoyalar, ertaklar va ularning matni bilan ishlashish jarayoni keng tarzda amalga oshirishi lozim. Bunda, asosan, ijtimoiy atrof-muhit, tabiat, bog' va manzarali maskanlarining ahamiyati katta.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfdan tashqari mashg'ulotlar mavzuning keng tarzda yoritilishi va mavzuning chuqurroq o'rgatilishiga xizmat qiladi. Ishbu holatlarda asosan, hikoyalarning tanlanishidan sabab hikoyalarda voqealar rivojining sarguzashti fonida amalga oshirilishi, qahramonlarning o'zaro qiziquvchanlik, qiziqtirish darajasiga ega ekanligi, kishilarga o'rnak bo'la olish qobiliyatining qahramonlar vositasi shakllanishiv yordam beradi. Hikoyalar matn ustida ishlash borasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining hikoyalarni avvalo, o'qib chiqish, ularni o'qib chiqishda intonatsiya, ovoz va muhit sharoitidan kelib chiqib baholay olish qobiliyatini ham shakllantirishlari lozim. O'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash texnikasida turli xil usullari metodlardan foydalanishning o'rni katta bolib o'quvchining bilim darajasi, saviyasini oshirish va baholash texnikasida bu yordam beradi. O'quvchilarning matn ustida ishlash borasida harflar imlosi, So'z qo'llash borasidagi qobiliyat va munosabatlarning shakllanishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini hikoyalar matn ustida ishlashga tahlil qilishda keng vosita bo'ladi. Asosan, monolog va dialoglarning o'rni katta bo'lib, o'quvchilarga manalog va dialoglarning fiziologik ahamiyati hikoyalarning qo'llanilish doirasiga amalga oshiriladi. "Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar".[1]



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish va ularning o'zaro bilim salohiyatini oshirishda maktab ma'muriyati tomonidan taqdim etilgan darslik kitoblari va ularning tarkibida keltirilgan matnlar bilan ishlash yaxshi samara beradi. Jumladan: o'qish kitobi tarkibida keltirilgan hikoyalarni tahlil qilish, ularning mazmun mohiyati, yoritilish darajasi, saviyasi va xususiylik darajasiga ko'ra so'zlarning echa o'rinda va qanday tartibda qo'llanganligini aniqlash lozim. Bunda, hikoyalar tarkibida keltirilgan dialoglar soni, so'roq gaplar va shunga o'xshaganlar tahlil qilinadi. Sinfdan tashqari hikoya qilish uchun asosan, mustahkamlash darslarning uzviy davomiyligini amalga oshirish yoki o'qituvchining pedagogik mahorati tomonidan turli xil metod va usullarning qo'llanishi, ishlab chiqilishi ham yaxshi samara beradi.

O'quvchilarning boshlang'ich ta'limda mustaqil ishlarini amalga oshirish va ularni baholash texnikasi texnologiyasi "win diogrammasi" asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, o'tilgan mavzular asosida hikoyalarni tahlil qilish, ikki yoki undan ortiq hikoyalarni "win diogrammasi" orqali xulosalash, farqli jihatlari taqqoslash va ularni xudusiyliklarini amalga oshirishda "win diogrammasi"ning o'rni katta. Shunga ko'ra o'quvchilar birinchi, ikkinchi yoki uchinchi, to'rtinchi sinf bo'lishiga ko'ra, ularni yosh xususiyatlariga ko'ra belgilangan ma'lum tartibdagi hikoyalarni tahlil qilish lozim bo'lib, maqsadga muvofiqlikni tashkil etadi. Buning sababi shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning rivojlanish darajasi, onglilik xususiyati yillar sayin oshib boradi. Ushbu holatni biz boshlang'ich sinf o'quvchilarininh birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sinf bosqichlarid erishilayotgan yutuqlar va o'quv dasturlarning murakkablashib borish sistemasi orqali kuzatish mumkin. "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'minlashga da'vat etilgan. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir".[2]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etishda an'anaviy ta'limdan tashqari sinfdan tashqari o'qitish tizimlarining yo'l qo'yishning samaradorlik katta hisoblanadi. Ta'lim tizimining asosiy o'quvchilarga bilim berish va ularni intellektual salohiyatli va kreativ yondashuvli xarakter egalari sifatida bilim berish va ularni tarbiyalashdan iborat ekanligini unutmash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlariga berilgan imkoniyatdan foydalanib, atrof-muhit, tabiat va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazarida bilimlarini yanada orttirishlari lozim. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar sinfdan tashqari ta'lim dasturlarda ham inobatga olinadi. Turli xil davra suhbatlari, munozaralar yoki ochiq darslarning tashkil etilishi o'quvchilarda yaxshi va mukammal bilimning yodda saqlanib qolinishi, kelgusida rejalashtirilgan darslarga ham yaxshi tayyorlanib kelish lozim ekanligini ifodalab beradi. O'quvchilarning bilim salohiyati mana shunday holatlarda oshishi kuzatiladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida hikoyalar va matn ustida ishlashning o'rni, qahramonlarining pazitsiyasi, ularning vazifasi yoki salbiy ijobiy tomonlari tahlil qilinadi.



Vaziyat va muhitin kelib chiqib o'quvchilarning turli xil kiyimlar, gap-so'zlar, imo-
ishoralar yordamida hikoyada keltirilgan hayvonlarga, munosabatlarga, kishilarga, obrazlarga
taqlid qilishi yuzasidan ham metodlar mavjud. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasiga ijtimoiy
munosabatlar mana shunday holatlarda yaxshi samaradorlikning keltirib chiqaradi. "So'z
san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-
qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning
barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta xalq og'zaki
ijodini yaqindan o'qishi lozim. Ertaklar - yaxshilikka yetaklar deganlariday o'quvchi ettaklar
bilan tanishar ekan mard, jasur vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan,
topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi".[3]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil
ta'limini tashkil etishda maktabdan tashqari o'quv dasturlarini ishga tushirish va
o'quvchilarning bilim salohiyatini yanada kuchaytirish lozim. Shuningdek, hikoyalarni tahlil
qilishda. Dilolog, monologlarning hikoyada tutgan o'rni obrazlar, qahramonlar, ularning soni
va bajarayotgan vazifasi ijobiylik va salbiylik xususiyatlariga ko'ra boshlang'ich sinf
o'quvchilariga bilim berish va ularning amaliy tajribalarini oshirish lozim. Boshlang'ich sinf
o'quvchilarining darsliklarida keltirilgan hikoyalar va ularning tahlili va ularda
mustahkamlash darslarning amalga oshirilishi ham mana shunday holatlarda amalga
oshiriladi.

References:

1. Ro'ziyeva Shohista To'layevna. "Hikoya janrini organish prinsiplari (Abdulla Qahhor ijodi misolida)". Bitiruv malakaviy ishi. Toshkent - 2018.
2. Qorayev Samariddin Barakayevich, Janbayeva Marjan Smatillayevna. "Boshlang'ich sinflarda sindan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy zamonaviy tamoyillari" maqola. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar
3. Qorayev S.B., Allayorova S.B. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari". Academic research in educational sciences, 2(2).